

# GEOGRAFIK NOMLARINI O`RGANISHNING TADQIQOT USULLARI

Qilichov.O.A.

Teacher of Karshi State University

**Annotatsiya.** *Geografik nom doimo kishilik jamiyatining ijtimoiy ehtiyoji tufayli paydo bo`lganligi bois, hattoki, tabiiy geografik terminlar ham toponimiyada geografik obyektning iqtisodiy – ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Har bir geografik nom bu til orqali ifodalangan ixcham tarix, uning asosi muayyan tarixiy davrda yaratilgan.*

**Kalit so`zlar:** *toponim, ekspeditsiya, topoformant, ko`l, daryo, toponomik tadqiqot*

## ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЕ МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ

**Аннотация.** *Поскольку географическое название всегда возникало вследствие социальных потребностей отдельного общества, то даже естественные географические термины определяют экономическое и социальное значение географического объекта в топонимии. Каждое географическое название — это краткая история, выраженная посредством этого языка, ее основа создавалась в определенный исторический период.*

**Ключевые слова:** *топоним, экспедиция, topoformant, озеро, река, топонимические исследования*

## RESEARCH METHODS OF STUDYING GEOGRAPHICAL NAMES

**Abstract.** *Since the geographical name always appeared due to the social needs of the individual society, even the natural geographical terms determine the economic and social importance of the geographical object in toponymy. Each geographical name is a concise history expressed through this language, its basis was created in a certain historical period.*

**Key words:** *toponym, expedition, topoformant, lake, river, toponymic research*

Geografik obyektlarni nomlanishiga asos bo'lgan geografik tarixiy va lisoniy sabalarni bevosita joyida aniqlash uchun ko'pincha dala ekspeditsiyalar tashkil etish zarurati yuzaga keladi. Bunday hollarda dala tadqiqotlari, toponimik ekspeditsiyalar bevosita obyekt bilan joyida yaqindan tanishish, toponim va geografik terminlarning moxiyatini belgilash hamda ayrim xulosalarni to'gri aniqlash imkonini beradi. Toponimik tadqiqotlar yordamida turli sabablar bilan yo'q bo'lib ketayotgan ammo muhim ilmiy ahamiyatga ega mikrotoponimlarni yig'ish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ladi. Mazkur tadqiqotlarda kutilgan natijaga erishish uchun ba'zan nomlashga turtki bo'lgan ijtimoiy – siyosiy, tarixiy va geografik asoslarni bevosita joyida aniqlashga to'g'ri keladi. Bunday hollarda toponimik ekspiditsiyalar geografik obyekt bilan bevosita joyida yaqindan tanishish, joy nomining mazmun – moxiyatini aniqlashda muhim ilmiy xulosalar chiqarishda yordam beradi. Dala sharoitida olib boriladigan toponimik tadqiqotlarda quyidagi manba va ma'lumotlardan foydalanish mumkin:

1. Mahalliy dala ma'lumotlari. Ular yordamida geografik nomlarning geografik obyektlar xususiyatlariga mos kelishi, ularning transkripsiyasini, karta va ma'lumotnomalarda uchramaydigan nomlarni o'rGANISH mumkin.

2. Yozma ma'lumotlar. Bularga solnomalar, turli yuridik hujjatlar, kartalar, arxiv hujjatlari, lug'atlar, ma'lumotlar va boshqalar kiradi. Ular yordamida toponimlarning yashovchanligi, axborot tashishi, o'zgarishlarga duchor bo'lishi, nomlashda turtki bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni belgilash kabi masalalarni aniqlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Tarixiy usuldan foydalanish, bu usulda toponimning paydo bo'lgan davri uning evolutsiyasi va transformatsiyasi hamda yangi geografik nomning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ijtimoiy muhitni aniqlash mumkin. Shu sababdan har qanday toponimik fakti taddiq va taxlil qilishda, aniq tarixiy voqelikni hisobga olib ish ko'rish ulardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Ko'pincha geografik nomlarning semantikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular uzoq tarixiy

davr davomida shakllangan bo'lib, insonni tabiatga bo'lgan munosabatini ifoda etadi.

Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan A.I.Popov o'zining tadqiqotlarida aniq tarixiy sharoit va tarixiy manbalardan xabardor bo'lmasdan turib geografik nomning kelib chiqishi haqida fikr bildirish mumkin emasligi haqida fikrlar bildirgan. Toponimlar aniq bir sharoitda paydo bo'lib, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili, jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'liq. Aniqroq aytganda, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini, uning geografik nomlarini o'ziga xos manba ekanligini e'tiborga olish zarur.

Geografik nomning asl ma'nosini aniqlashda uni paydo bo'lgan davri bilan birga o'rghanish maqsadga muofiqdir. Har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlamini hosil qilgan, aniqrog'i har bir tarixiy qatlamning joy nomlarida o'ziga xos o'mni mavjud.

Geografik nomlarning tadqiq etishda olimlar tomonidan umumiy usullar (topoformatlar, etimologik grammatik tuzilishi) keng qo'llaniladi. Nomlarning tarkibi, so'z va qo'shimchalar ularning ma'nolari nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy – siyosiy omillar o'sha davr voqeligi bilan baholanishi, izohlanish va tadqiq etilishi lozim.

Toponimlarni izohlash uchun foydalilaniladigan dastlabki usul topoformantlar usulidir. Formant (lotincha "formans" – xosil qiluvchi) deb, so'z yasaladigan, lekin mustaqil o'zi ishlatilmaydigan unsurlarga aytildi. Toponimlarni formantlarga qarab o'rghanish sohasida keyingi o'n yilliklarda sezilarli ishlar qilindi. Bu usulda nomlar tarkibida ko'plab takrorlanadigan elementlar bir xil ma'noni anglatishi e'tiborga olinadi. Masalan, toponomikada – zor affaksi bilan ifodalangan nomlar ma'lum o'simlik turning bir hududda ko'p tarqalganini bildiradi. Jumladan, Archazor, Mevazor, Olmazor, Chilonzor, Terakzor, O'rikzor kabi joy nomlar shu usulda yasalgan. Bu usul nafaqat geografik nomlarni tadqiq etishda balki ularni yaratilishida, nomlanishida ham keng qo'llanadi.

Taqdiqotchilarning ta'kidlashicha, toponimlarni taxlil qilishda qo'llaniladigan yana bir usul nom yasashda ishtirok etadigan so'zlarning ma'noviy jihatdan o'xhash ekanligi va gramatik jihatdan tuzulishida geografik nomlarni hosil qilishda ko'proq ishtirok etadigan so'z bo'laklarining tarkibida ham ko'rindi. Bir so'zdan iborat toponimlar odatda otlar va kamdan - kam hollardagina sifatlar shaklida xosil bo'ladi. Shunday qilib, geografik nomlar muayyan qoliplar shaklida hosil bo'ladi. Ana shunday qoliplar toponimik modellar deyiladi.

Toponimik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik usul yaxshi samara beradi. Bu usul yordamida ma'lum hududdagi geografik nomlarning sonini aniqlash, boshqa shakldagi nomlar bilan taqqoslash, kelib chiqishi, qaysi tilga mansubligini foiz nisbatlarini o'rganish imkoniyati mavjud. Statistik ma'lumotlar tadqiqotchida mintqa topominlari haqidagi tasavurlarini aniqlashtiradi va aniq xulosa chiqarishga ko'maklashadi. Toponimikada kartografik ma'lumotlarni taxlil etishda statistik usulni qo'llash maqsadga muvofiq.

Toponimikaning fanlararo ta'snidan kelib chiqib, u o'rganadigan obyektlarni tadqiq etish ham 3 xil geografik tarixiy va umumiy usullarda olib boriladi. Bu usullarni o'rganilayotgan obyektning xususiyatidan kelib chiqib to'g'ri tanlash zurur. Bir necha usulni qo'llab olingen ilmiy natija obyekt bo'yicha to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi.

Geografik nomlar geografiyaning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ulardan geografiyada berilgan ma'lumotlarni hududiy bog'lashda foydalilanadi. Geografiyada biror hodisa yoki voqeani izohlash uchun albatta joy nomi bilan bog'lanadi. Geografik qonuniyatlarni geografik obyekt nomisiz tushuntirib bo'lmaydi.

Har bir joyning geografik nomlarini o'rganish ma'lumotlar to'plashdan boshlanadi. Geografik nomlar haqidagi ma'lumotlar bevosita joyda, o'rganilayotgan hududda yig'iladi. Kerakli ma'lumotlarni yana xaritalardan, turli

xil ma'lumotlardan, badiiy, tarixiy adabiyotlardan, shuningdek davlat arxivlaridan olinadi. Ilmiy sayohatlar vaqtida aholidan, xususan mahalliy aholidan so'rab o'rghanish ma'lumot to'plashda katta yordam beradi. Ma'lumotlar qanday manbalardan to'plangan bo'lishidan qat'iy nazar, to'g'ri bo'lishi kerak.

Joyda ma'lumot yig'ish vaqtida hamma nomlarni, shu jumladan juda kichik geografik obyektlar nomlarini ham yozib borish kerak.

Joy nomlarini o'rghanishni har bir nom uchun kortoteka tuzishdan boshlash zarur. Har bir nomni o'rganganda va ma'lumot to'plaganda muayyan tartibdagi savollar tuzilishi va nomlarni dastlabki o'rghanish ana shu savollarga javob tayyorlashdan iborat bo'lishi kerak.

Bu savollar quyidagilar :

1. Mazkur nom nimaning nomi: qishloqmi, shaharmi, tog'mi, daryomi, ko'lmi, ko'chami, ovulmi, mahallami, guzarmi, buloqmi, jarmi va h.k.

2. Bu obyektning boshqa nomi ham bormi, bo'lsa avvalgi nomi qanday, qachon, nega o'zgargan?

3. Bu nom qachondan beri mavjud?

4. Yaqin atrofda yana shu nomda boshqa obyektlar (daryo, ko'l, jar, qishloq va boshqalar) bormi?

5. Mahalliy aholi joy nomi ma'nosini qanday tushuntiradi?

6. Mahalliy aholining joy nomi haqidagi fikri siz yiqqan ma'lumotlarga to'g'ri keladimi?

7. Joy nomida mahalliy tabiiy xususiyatlar qanchalik aks etgan?

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, toponimning asl ma'nosini aniqlash uchun bitta metoddan foydalanish yaxshi samara bermasligi mumkin. Shu sababdan, toponimistning asosiy vazifasi - fanning turli toponimik tadqiqot metodlaridan foydalanib haqiqiy ilmiy natijani qo'lga kiritishdan iborat. Yana shuni ham unitmaslik kerakki, toponimik tizimdan ajratib olingan alohida nom ilmiy tahlil uchun asos bo'lolmaydi. Aksincha, toponimik tadqiqotlarda geografik nomni hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## Adabiyotlar

1. Эшбоев Б. Т. Гидронимлар ва географик терминларнинг жой номларида акс этиши //Общество Узбекистана. – С. 117.
2. Eshboev B. T. Description of toponyms related to the geographical location of Kashkadarya region //Экономика и социум. – 2020. – №. 10 (77). – С. 67-72.
3. Eshboev B. T. et al. The role of geographic terms definition high relief forms in the formation of oronyms //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 117-119.
4. Tojiyevich E. B., Geldiyarovich N. M. Explanation Of Oronyms And Orographic Terms Of Kashkadarya Region //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. – 2021. – Т. 27. – №. 1.
5. Bexzod E., Shoxboz Y. O'zbekiston oronimlarining shakllanish xususiyatlari va lisoniy tahlili //Innovations in Technology and Science Education. – 2023. – Т. 2. – №. 8. – С. 697-701.
6. Eshboev B. T., Kilichov O. A. The role of geographical conditions in the formation of hydronyms //Экономика и социум. – 2022. – №. 6-1 (97). – С. 73-76.
7. Tojiyevich E. B., Erkinovna K. M. Plase names of the Kashkadarya region associated with climatic and meteorological features // Science, research, development, №32. – Р. 51.
8. Эшбоев Б. Т., Холбоева М. Э. “Зафарнома” асарида келтирилган Қашқадарё вилояти худудидаги жой номлари //Tabiiy fanlarni o'qitishdagi innovatsiyalar, ekologik xavfsizlik, ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari. – С. 295.
9. Eshboev B. Kashkadarya region toponyms //Monografiya. Karshi. – 2021.
10. Миракмалов М. Т., Абдуллаева Д. Н., Эшбаев Б. Т. Отражение физико-географических условий территории в топонимии Узбекистана //Науки о Земле: вчера, сегодня, завтра. – 2018. – С. 28.
11. Eshboyev.B.T.,Qilichov.O.A. Gidronimlar va gidrografik terminlarning nomlashuv jarayonlari//Ilmiy amaliy jurnal//Agrar fani xabarnomasi T. 2022. №-6. 152 b
12. Safarov I. B. Geographical features of pilgrimage tourism (in the case of Kashkadarya region) //Экономика и социум. – 2023. – №. 2 (105). – С. 321-324.
13. Safarov I. B., Rasulov F. I. PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF PILGRIMAGE TOURISM (ON THE EXAMPLE OF KOSON DISTRICT) //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 189-191.

14. Safarov I. B., Toshquvvatov I. T. RECREATIONAL AND TOURISTIC OPPORTUNITIES OF UZBEKISTAN'S MOUNTAINS // Экономика и социум. – 2023. – №.11(114). – С. 303-312.
15. Сафаров И. Б., Халилов Н. Х. ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА ВЕРХНЕ-КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ // Educational Research in Universal Sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 707-713.
16. Сафаров И. Б., Расулов Ф. И. СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ГОРОДОВ КАШКАДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ // Экономика и социум. – 2024. . – №. 1 (116). – С. 1304-1311